



maktabgacha
va maktab ta'lifi bo'limi
tasarrufidagi
—umumi o'rta ta'lim maktabi

6-“ ” SINF RAHBARI

ning

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining
34 yilligiga bag'ishlangan

“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

shiori ostida tayyorlagan bir soatlik

**DARS
ISHLANMASI**



Mavzu: “Eng ulug‘, eng aziz”

Shior: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

Darsning maqsadi:

ta’limiy maqsad-o ‘quvchilarga istiqlol bu- ajdodlarimiz ko‘p yillar orzu qilgan erkinlik, hurlik ekanligini, yurtimiz kelajagining nechog‘lik porloq bo‘lishi yosh avlodga bog‘liqligi hamda zamon bilan hamnafas yashash bugunning talabi ekanligini tushuntirish;

tarbiyaviy maqsad- dunyoqarashi keng va chuqur bilimlarga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, shukronalik hissini uyg‘otish, boy tariximizni ko‘z qorachig‘idek asrash, davlat ramzlariga hurmat , yurtga sadoqat hissini tarbiyalash.

rivojlantiruvchi maqsad- o ‘quvchilar faolligi, iqtidor va salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Besh ijobjiy tashabbus” “O‘zbekiston—2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari va “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir!” tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ‘ib etish kabi muhim dastur va rejalar doirasida olib borilayotgan tub islohotlarning ma’no-mazmuni va ruhi mujassam etganligini o‘quvchilar ongiga singdirish.

Tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera olish.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarga o‘zini tuta bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi: milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va bir-biridan farqlash.

Dars turi: aralash

Dars metodi: suhbat, savol- javob, “Tarmoqlash” metodi, “Bilarjонни kim yengadi?” ta’limiy o‘yini.

Darsning jihizi:

didaktik jihoz: Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”, “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asari, davlat ramzlari, Harakatlar strategiyasiga oid video va audio yozuvlar, mustaqillik yillari rasmlari.

texnik jihoz: televizor, noutbuk, slaydlar.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

a) salomlashish hamda navbatchi axborotini tinglash;

 b) davomatni aniqlash hamda tozalik nazorati;

 s) ma`naviy daqiqa.

Dars shiori:

“Mustaqillik nuriga to‘lsin Vatan,
Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!”

1- o‘quvchi: So‘zimiz boshi salom,

 Ish boshidir intizom.

 Ustozlarga chin dildan,

 Deymiz, salom , assalom!

2- o‘quvchi: Mustaqil yurtimizning,

 Kelajagi bizlarmiz.

 Ona Vatan bag‘rida,

 Baxtin topgan bizlarmiz.

3- o‘quvchi: Ona yurtga muhabbat,

 Yosh avlodning dilida.

 Madhiyamiz yangraydi,



Bolajonlar tilida.

O'qituvchi: - Assalomu alaykum, bilimga chanqoq o'quvchilar, aziz mehmonlar, Istiqlolning 34 yilligiga bag'ishlangan darsimizni boshlaymiz.

4- o'quvchi: Mustaqillik qutlayman seni,
Bor san`atim, bayotim bilan.
Mustaqillik asrayman seni,
Kerak bo'lsa hayotim bilan.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

Ta'til topshiriqlari asosida suhbat o'tkaziladi. Suhbat mavzusi bevosita tinchlik mavzusi bilan bog'lanib ketadi. Tinchlik tushunchasini barcha o'quvchilar o'zlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradilar. Mustaqillik bayrami haqida o'quvchilar tushunchasi tinglanadi.

5- o'quvchi: 1991- yil 31- avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e`lon qilindi.

6- o'quvchi: Tarix sahifasiga 1- sentabr – Mustaqillik kuni sifatida zarhal harflar bilan bitildi.

7- o'quvchi: Yurtimizda o'tgan 34 yil mobaynida ko'plab ijobiliy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa keyingi yillarda bunyodkorlik ishlarini aytib adog'iga yetolmaymiz.

8- o'quvchi: Turkistonli shonimiz,
Turonli unvonimiz.
Vatan bizning shonimiz
Fido bo'lsin jonimiz.

III. Yangi mavzu bayoni.

Tarixda hech bir xalq yoki millat o'z ozodligi va mustaqilligini osonlik bilan qo'lga kiritmagan. Buni jahon tarixi, jumladan, yurtimiz tarixi ham isbotlaydi. Bizning ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz qadim tariximiz davomida necha bor yovuz bosqinchilar hujumiga duch kelib, Vatanimiz ozodligi uchun kurash olib borganlar. Masalan, To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Mahmud Torobi, Amir Temur singari mard va bahodir sarkardalarimiz boshchiligidagi yovlarga qarshi qilingan jangu jadallar, so'nggi 130 yildan ortiqroq davom etgan istibdod davridagi ozodlik kurashlari, jadid bobolarimizning xalqimizni jaholat va mustamlakachilik domidan xalos etish yo'lidagi ma'rifiy harakatlari bu fikrning tasdig'i idir.

2016-yil 4-dekabr hamda 2023-yil 9-iyulda doimo xalq manfaatlari uchun jon kuydurgan o'zbekiston o'g'loni Shavkat Mirziyayev Miromonovich prezidentlik saylovida g'olib chiqdi va O'zbekiston Respublikasi prezidenti deb e'lon qilindi.

Bu yil 2025-yil davlatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi.

So'ngra o'quvchilar e'tiboriga slaydlarda rasmlar havola etiladi va ular haqidagi tushunchalari so'raladi.

O‘quvchilarni prezidentimiz tomonidan tuzilgan 2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi Harakatlar strategiyasi mazmun mohiyati bilan tanishtiriladi. Qisqacha mazmuni tushuntirib beriladi.



2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha’ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda. Respublikamizda ta‘lim tizimining rivojlanishi shiddat bilan o‘sib bormoqda. Mustaqillikdan avvalgi an‘anaviy darslar o‘rnini noan‘anaviy tarzagi kompetensiyaviy talimga asoslangan darslar egallayotganligi, ta‘lim tizimini tubdan isloh qilinayotganligi, o‘qituvchi maoshi va obro‘sini yuksaltirishdagi prezidentimizning olib borayotgan oqilonqa siyosatlari to‘g‘risida suhbat uyushtiriladi va o‘quvchilarni o‘qituvchilik kasbini egallashiga yo‘naltiriladi.

Prezidentimiz raisligida 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazilgan yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda 5 ta muhim tashabbusni belgilab berdi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.



qobiliyatini namoyish qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.



Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.



To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.



Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash masalalarini nazarda tutadi.



Quvnoq daqiqa: (Vatan haqida qo‘sish kuylanadi)

9- o‘quvchi:

FIDOYILAR KERAK VATANGA

*O‘zbekona g‘ururi baland,
Temuriylar nasliga monand,
Xalqi bilan yuragi payvand
Fidoyilar kerak Vatanga!
Vatanim deb, o‘zin unutgan,
Yov kelganda ko‘ksini tutgan,
Farzand bo‘lib jonini tikkan
Fidoyilar kerak Vatanga!
Oltin zamin belbog‘larini,
Osmon o‘par alp tog‘larini,
Asraguvchi bog‘-rog‘larini
Fidoyilar kerak Vatanga!*

O‘quvchilar bilan davlat ramzlari nomlari va ularni tasvirlari yuzasidan suhbat o‘tkazilib, tarmoqlanadi. O‘quvchilar ramzlar haqida she`rlar ijro etadilar.



10 – o‘quvchi: *O‘zbekiston bayrog‘i
Hilpirar ko‘kda erkin.
Havorang, oq va yashil,
Keltiraylik ta`rifin.
Ko‘k rangi bu – osmonimiz,
Yashil bog‘-u bo‘stonimiz.
Oq rang- poklik, qizil rang,
Tomirdagi qonimiz.*

11- o‘quvchi: *Vatanimizning gerbida,
Charaqlab turar quyosh.
Qanotini keng yoyib,
Mag‘rur turar Humo qushi.
O‘ng tomoni paxtazor,
Yurtimning oq- oltini.*



*So'l tomoni bug 'doyzor,
Vatanimizning non-doni.*

12 – o'quvchi: *Yillar o'tar, Qomusimiz bo'lsin omon,
Keng jahonda o'zbek elim sursin davron.*

*Doim bo'lsin o'zbek elim Qomusli el,
Omon bo'lsin Qomusli el, nomusli el*

13- o'quvchi: *Serquyosh hur o'lkam, deya madh etib,
Kuylayman jamoling, jonajon yurtim.
Kelajaging buyuk, toleying ulug',
Yo'llaring nurafshon, nurga kon yurtim.*

Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy-axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yurtimizda yaratilgan keng imkoniyatlarning mingdan biridir.

Respublikamizda ta'lim tizimining rivojlanishi shiddat bilan o'sib bormoqda. Mustaqillikdan avvalgi an'anaviy darslar o'rnini noan'anaviy tarzdagi insonparvarlashtirilgan ta'lim egallagani, dars jarayonida o'quvchining faollashtirish yo'lida barcha choralar

qo'lanayotgani to'g'risida suhbatlashiladi.

IV. Mavzuni mustahkamlash:

Kichik guruhlarda o'quvchilar mavzu yuzasidan fikr almashishadi. "Bilarjonni kim yengadi?" ta'limiy o'yini o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar Bilarjonning savollariga javob beradilar. Matn yuzasidan savollar:

- Mustaqillik degani nima?
- O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi qachon e`lon qilindi?
- Yurt mustaqil bo'lishi uchun nimalarga ega bo'lishi kerak?
- Mustaqillik tufayli qanday yutuqlarga erishdik?

Javoblari tinglanib, Bilarjonni yenggan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Mavzu yuzasidan olgan bilimlari mustahkamlanadi.

V. Darsni yakunlash va o'quvchilarini baholash:

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Darsning eng faol o'quvchilari e`lon qilinadi.

VI. Uyga vazifa:

"Biz Vatanning kelajagimiz" mavzusida rasm ishlash.



[**www.idum.uz**](http://www.idum.uz) veb-sayti ma'muriyati
hamkorlik va taqdim etilgan fayllar uchun
[**www.zokirjon.com**](http://www.zokirjon.com) sayti ma'muriyatiga o'z
minnatdorchilik bildiradi

[**www.zokirjon.com**](http://www.zokirjon.com) saytidan kerakli fayl va
hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun telefonlar:
+998905306866, +998913977737

Yoki telegram orqali yozishingiz mumkin:
@nza456 yoki @nza445